

- 6 (4,2 ball) Quyida berilgan 4x4 jadvalning ba'zi kataklari ko'k, sariq va yashil ranga bo'yalgan. Bu jadvaldagi kamida nechta oq kataklarni bo'yaganda bu shakl kamida 1 ta simmetriya o'qiga ega bo'ladi?

- A) 3 B) 4 C) 5 D) 6
- 7 (4,2 ball) Savatdagi shirinliklarning $\frac{1}{3}$ qismini Umar, qolganining $\frac{1}{2}$ qismini Usmon, undan ham qolgan shirinliklarning barchasini Ali oldi. Kim eng ko'p shirinlik olgan?
- A) Umar B) Usmon C) Ali D) Hamma bir xil

- 8 (4,2 ball) Doscaga 5 ga karrali barcha ikki xonali sonlar yozilgan. Quyidagi tasdiqlardan nechtasi to'g'ri?
- Yozilgan har bir sonda 5 yoki 0 raqami bor.
 - Jami 20 ta son yozilgan.
 - Doscada yozilgan ixtiyoriy ikkita son farqi 85 dan oshmaydi.
- A) 0 B) 1 C) 2 D) 3


- 9 (4,2 ball) Quyon va toshbaqa yugurish estafetasida qatnashishyapti. Estafeta 13:00 da boshlangan. Toshbaqa estafeta tayoqchasini yo'lning o'rtasida quyonga berdi va quyon marraga 13:12 da yetib keldi. Agar toshbaqaning tezligi quyonnikidan 2 marta kam bo'lsa, u estafeta tayoqchasini soat nechada quyonga bergan?
- A) 13:08 B) 13:06 C) 13:10 D) 13:04

- 10 (4,2 ball) Kitob do'konida 12 ta kitob bor. Ulardan 11 tasi bir xil narxda, bittasi esa boshqalaridan arzonroq. Barcha kitoblarning umumiy narxi 143 so'm. Xaridor 2 ta kitobni sotib oldi. Shundan keyin javonda qolgan kitoblarning umumiy narxi 119 so'm bo'lib qoldi. Arzonroq kitobning narxi necha so'm?
- A) 3 B) 4 C) 12 D) 11

- 11 (5,3 ball) Sardor va Salim soat 12:01 da bog'da ko'rishmoqchi. Ularning ikkalasida ham elektron soat bor. Sardor o'z elektron soatini to'g'ri o'qiydi va belgilangan vaqtda keladi. Salim esa elektron soatga teskari qaraydi. Agar Salim o'zining hisoblashi bo'yicha belgilangan vaqtga kelgan bo'lsa, Salim Sardorni necha minut kutib qolgan?
- A) 140 B) 120 C) 90 D) 100

3-sinf savollari

- 12 (5,3 ball) Quyida har bir raqamlarga nechta gugurt cho'pi ketishi ko'rsatilgan:



13 ta gugurt cho'pidan foydalanib, ikkita ikki xonali son tuzildi va ular ko'paytirildi. Shu ko'paytmaning qabul qilishi mumkin bo'lgan eng katta qiymatini toping.

- A) 6461 B) 5698 C) 7663 D) 5254


- 13 (5,3 ball) Stolda ikkita bir xil to'g'ri to'rtburchak shaklidagi qog'oz bor. Usmon birinchi qog'ozni qaychi bilan kesib, perimetrlari yig'indisi 720 ga teng bo'lgan ikkita to'g'ri to'rtburchakka ajratdi. Umar esa ikkinchi qog'ozni qaychi bilan kesib, perimetrlari yig'indisi 960 ga teng bo'lgan ikkita to'g'ri to'rtburchakka ajratdi. Dastlabki qog'ozlardan birining perimetrini toping.

- A) 360 B) 540 C) 480 D) 560


- 14 (5,3 ball) Sardor va Rasul bir vaqtda hovuzning bir tomonidan ikkinchi tomoniga suzib borib yana qaytib kelishlari kerak. Sardor hovuzning ikkinchi tomoniga suzib borganida, Rasul endi 16 metr suzgan edi. Sardor suzishni boshlagan joyiga qaytib kelganida Rasulning ham suzishni boshlagan joyiga kelishiga hali 10 metr bor edi. Hovuzning shu ikki tomoni orasidagi masofa necha metr?

- A) 15 B) 21 C) 24 D) 30

- 15 (5,3 ball) Behruzda to'rtta har xil muntazam ko'pburchak bor: uchburchak, kvadrat, beshburchak va oltiburchak. Ularning tomonlari uzunliklari santimetrlarda butun sonlar bilan ifodalanadi. Behruz ushbu shakllarni tomonlarining uzunliklari bo'yicha tartiblaganida quyidagicha bo'ldi:



Perimetrlari bo'yicha tartiblaganida esa quyidagicha holat bo'ldi:



Agar muntazam uchburchakning tomoni 28 cm teng bo'lsa, muntazam beshburchakning perimetrini toping(cm).

- A) 60 B) 90 C) 120 D) 150


16 (7,4 ball) Shaxzod olti xonali son o'yladi. U shuni sezdi, bu sonning ixtiyoriy 4 ta ketma-ket kelgan raqamlari yig'indisi 15 ga, ixtiyoriy ketma-ket kelgan 5 ta raqamlari yig'indisi esa 18 ga teng ekan. Shaxzod o'ylagan sonning raqamlari yig'indisini toping.

17 (7,4 ball) Qayumxo'ja, Nodir va Sardor bir oshxonada tushlik qilishdi. Ularning har biri bittadan ichimlik, asosiy taom va shirinlik oldi va 10500 so'mdan pul to'lashdi. Bunda


- Qayumxo'ja 2000 so'mlik ichimlik sotib olgan,
- Nodir 3000 so'mlik ichimlik sotib olgan,
- Sardor 2000 so'mlik shirinlik sotib olgan,
- Har bir kishi sotib olgan asosiy taom narxi bir xil.

Ichimliklar uchun sarflangan jami pul miqdori shirinliklar uchun sarflangan jami pul miqdoridan 1000 so'm kam. Qayumxo'ja asosiy taom uchun qancha pul to'lagan?

18 (7,4 ball) Maryamda rasmda ko'rsatilganidek 12 ta pazl bo'lagi bor. U ushbu bo'laklardan ba'zilarini birlashtirib, to'g'ri to'rtburchak hosil qilmoqchi. Buning uchun u eng ko'pi bilan nechta pazl bo'lagini ishlata oladi?



19 (7,4 ball) Qayumxo'ja son o'qida uchta ikki xonali sonlarni belgiladi. Bu ikki xonali sonlarning raqamlari o'rniga u har xil shakllarni chizib qo'ydi: bir xil raqamlar uchun bir xil shakl, har xil raqamlar uchun har xil shakl (rasimga qarang). Agar sonlar o'qidagi ikkita qo'shni nuqtalar orasi 1 ga teng bo'lsa, Qayumxo'ja belgilagan shu uchta sonning yig'indisini toping.



20 (7,4 ball) Salim va Sardor birgalikda test yechishmoqda. Sardor testni boshidan, Salim esa oxiridan boshlab bir vaqtda yecha boshladi. Sardor har bir masalaga qandaydir bir xil vaqtdan, Salim ham har bir masalaga qandaydir bir xil vaqtdan sarflaydi. 75 minutdan so'ng Sardor 26-savolga, Salim esa 50-savolga yetib kelgan edi. Shuningdek yana 45 minutdan so'ng ular aynan bir xil tartib raqamli savolga yetib kelishgan bo'lsa, test jami nechta savoldan iborat bo'lgan?